



TARBIYA TIZIMIDA KOMIL INSONNI MA'NAVIY TARBIYALASH
MASALALARI

Avazova Xushro'ybibi Kamoltdin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarbiya tizimida komil insonni ma'naviy tarbiyalashning dolzarb masalalari yoritilgan. Shaxsning ma'naviy kamoloti, axloqiy qadriyatlari, milliy va umuminsoniy fazilatlarini shakllantirish jarayonining pedagogik asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik va ma'rifat ruhida tarbiyalashning samarali usullari ko'rib chiqilgan. Tarbiya jarayonida oila, ta'lim muassasasi va jamiyat hamkorligining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: seminar mashg'ulotlari, seminar mashg'ulotlarini tashkil etish, seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik, maxsus seminar, hamkorlik, muhokama qilish, mustahkamlash, adabiyotni o'rganish, nazariy bilimlar

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные вопросы духовного воспитания гармонично развитой личности в системе воспитания. Проанализированы педагогические основы формирования духовной зрелости, нравственных ценностей, национальных и общечеловеческих качеств личности. Особое внимание уделено эффективным методам воспитания молодого поколения в духе патриотизма, гуманизма, честности и просвещения. Также раскрывается значение сотрудничества семьи, образовательных учреждений и общества в воспитательном процессе.

Ключевые слова: семинарские занятия, организация семинарских занятий, подготовка к семинарским занятиям, специальный семинар, сотрудничество, обсуждение, закрепление, изучение литературы

Abstract: This article discusses the important issues of spiritual education of a harmoniously developed individual within the educational system. The pedagogical foundations of developing moral maturity, ethical values, national and universal human qualities are analyzed. The study also highlights effective methods of educating the younger generation in the spirit of patriotism, humanity, honesty, and enlightenment. In addition, the importance of cooperation between family, educational institutions, and society in the educational process is emphasized.

Keywords: sessions, organization of seminar sessions, preparation for seminar sessions, special seminar, collaboration, discussion, consolidation, literature review.

Ma'naviy barkamol inson tushunchasi keng qamrovli, serqirra tushuncha. Ma'naviy barkamol inson – komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma'naviy barkamol inson tushunchasi sog'lom avlod tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi.



Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo'lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

Buyuk kelajak ma'naviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi, qad ko'taradi. Boshqacha aytganda, ma'naviy barkamol insonlarga buyuk kelajakni yarata oladi. Bu masalada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi so'zlari ibratlidir: "Biz sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki Sharqona ahloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida komil topgan insonni tushunamiz".

Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, sharqona odob-ahloq va umumbashariy g'oyalarni ongiga singdirib olgan kishi yuksak ma'naviyatli, ya'ni ma'naviy barkamol, komil inson hisoblanadi.

Ma'naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Mustaqillik, bu – bizga ajdodlarimiz qoldirgan boy va muqaddas ma'naviyatdir. Shu ma'naviyatni har birimiz avaylab-asrashimiz davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim vazifa va burchdir. Shu vazifani amalga oshirish va hal qilishda yoshlar va butun xalq ongiga mustaqillik ruhini singdirish katta ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy-ma'rifiy barkamollikning qirralaridan biri milliy iftixordir. Milliy g'urur bu milliy iftixordir.

Butun dunyo hamjamiyati e'tirof etganidek, O'zbekiston qadimdan madaniyat va sivilizatsiya barpo etuvchi zamindir. Darhaqiqat, o'rta asrlarda O'zbekiston hududida vujudga kelgan ilmiy-ma'naviy yutuqlar Yevropadagi ilmu fanga asos bo'ldi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy kabi ulug' mutafakkirlarimizning beqiyos ilmiy-falsafiy risolalari dunyoviy bilimlarni rivojlantirish va tizimlashtirish bilan bir qatorda, nafaqat o'z zamonasi, balki keyingi yuz yilliklarga tegishli umumjahon tamaddunining yuksalishiga asos soldi. "Ajdodlaring shuhratiga suyanma, o'zingga o'zing shuhrat top. Kimda kim obro'li qarindoshlariga nisbat berib, ularni vosita qilsa va hech narsa qilmay, faqat o'lgan ajdodlari bilan faxrlanib yursa, o'sha kishining o'zi o'lik va ajdodlari esa, tirik sanaladi", deb aytgan edi mutafakkir Abu Rayhon Beruniy. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustah-kamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Beruniy kishilarning aqliy qarashlarida, axloqiy sifatlarida, inson ruhiyatini o'zgartirishida ta'lim-tarbiyaning ahamiyati katta ekanligini ko'rsatgan. Inson so'zlash, his etish qobiliyati bilangina bilim va hunarni egallaydi, bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni amalga oshiradi. Inson tafakkuri vaqelikni bilishga qaratilgandir.

"Ammo inson narsa va hodisalarning faqat sifat hamda xususiyatlari haqida bilim beruvchi hissiy bilish darajasida to'xtab qolmaydi, balki narsalarni atroflicha bilish, shu narsalar haqida fikr yuritishni talab qiladi", – deydi Beruniy. "Har bir insonning qadr-qimmatini o'z ishini qanday bajarayotgani bilan o'lchanadi.



Insonning tilak va xoxishlari mehnat tufayligina amalga oshirilishi mumkin", degan xulosaga keladi. Ma'lumki, kishi kamolotida uch narsa, ya'ni irsiyat, muhit, tarbiya asosiy rol o'ynaydi. Bularni faylasuf olimlar va pedagoglar turlicha izohlab kelganlar. Ibn Sinoning asarlarida inson tabiati azaldan axloqli yoki axloqsiz bo'lmaydi, degan muhim g'oya ilgari suriladi. Aslida odamlar tayyor fazilat, odat va hayotiy ko'nikmalar bilan tug'ilmaydilar.

Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida sekin-asta ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiyaning ta'siri ostida shakllana boradi. So'nggi yillarda milliy ta'lim tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Milliy g'urur o'z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an'analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma'naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab-asrashdir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan unga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangiyangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z otaonasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda.

Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim", deya ta'kidlagan edi. Ma'naviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga yetish mumkin emas. Demak, ma'naviy barkamollikka intilish – bu komil inson darajasiga erishish uchun intilishdir. Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi. Uchala tushuncha: sog'lom avlod, ma'naviy barkamol, komil inson – darajama-daraja chuqur ma'no kasb etadi.

Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, komil inson bo'lishning aniq cheki va chegarasi yo'q. Bizning ko'hna tariximizda yuzaga kelgan, xalq, mamlakat tarixida katta ma'naviyaxloqiy tarbiya rolini o'ynagan tasavvuf komil inson nazariyasi haqidagi, uni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqidagi ta'limot va amaliyot sanaladi. Mazkur masalani tasavvuf ta'limotidan kelib chiqqan holda bayon etishni maqsadga muvofiq deb topdik. Komil inson biz uchun idealdir.

U barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomati serob, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim to'la pokiza zot. Komil inson odamzot orzu qilgan jamiki ezgu xislat va fazilatlarining ifodachisi.

Qadimgi yunon faylasufi Arastuning komil inson qanday bo'lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlari mavjud. Komil inson mukammal fuqaro bo'lishi kerak, mukammal fuqaro bo'lishi uchun davlat ham mukammal bo'lishi kerak.

Bu qarash oliy darajadagi yunon shahar-davlat hayotini kuzatuvchi va tadqiq qiluvchi Arastuga o'xshagan kishilarga xosdir. Haqiqatan ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga jiddiy va uzluksiz e'tibor berib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning har bir nutqi va ma'ruzalari, maqola va asarlarida yuksak ma'naviyat kelajak poydevori ekanligi



qaytaqayta ta'kidlangan. "Zero, biz jamiyatimiz taraqqiyotini faqatgina iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik bilangina emas, xalqimizning ma'naviy barkamolligi, demokratik va insonparvarlik tamoyillarining kishilar ongida nechog'lik chuqur ildiz otishi bilan baholaymiz".

Inson ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Islohotlarning birinchi bosqichida milliy ma'naviyatni yuksaltirish yo'lida ko'zlangan maqsad to'la amalga oshirildi va ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga zamin hozirlandi. Ma'naviy, g'oyaviy, mafkuraviy parokandalik davriga barham berildi. Ijtimoiy hodisalar bilan birga milliy ma'naviyatimiz yuksala bordi.

Kishilarda, xususan yoshlarda yangi ma'naviyatning shakllanishi ancha murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun keng ko'lamli madaniy, tarixiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Eski tuzum sharoitida tarkib topgan ma'naviy inqirozga barham berish, yangicha tafakkurga ega bo'lgan insonni shakllantirish murakkab, muayyan davrni talab qiluvchi, asta-sekin amalga oshadigan jarayon bo'lganligi sababli tarixning burilish davrlarida jamiyat hayotida ma'naviy bo'shliq holatlari ham yuzaga kelishi tabiiydir. Bu bo'shliq jamiyat uchun iqtisodiy, siyosiy inqirozga nisbatan ancha xatarliroq kechadi. Shuning uchun jamiyat ma'naviy hayotida bo'shliq paydo bo'lishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Bunday bo'shliq yuzaga kelgan taqdirda farzandlarimizni boshqalar yetaklashga harakat qiladi. Bundan xulosa shuki, hech kechiktirmay, ikkilanmay ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasi haqida o'ylash, uni to'g'ri yo'lga solish maqsadga muvofiq. Bunda biz ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning: "tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", degan o'gitiga amal qilishimiz zarur.

Bugungi kunda ma'naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning asosiy masalalaridan biriga aylanib qoldi. Kishilarda, xususan yoshlarda yangi ma'naviyatning shakllanishi ancha murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun keng ko'lamli madaniy, tarixiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi.

Eski tuzum sharoitida tarkib topgan ma'naviy inqirozga barham berish, yangicha tafakkurga ega bo'lgan insonni shakllantirish murakkab, muayyan davrni talab qiluvchi, asta-sekin amalga oshadigan jarayon bo'lganligi sababli tarixning burilish davrlarida jamiyat hayotida ma'naviy bo'shliq holatlari ham yuzaga kelishi tabiiydir.

Bu bo'shliq jamiyat uchun iqtisodiy, siyosiy inqirozga nisbatan ancha xatarliroq kechadi. Bunga keyingi vaqtlarda yuz bergan mudhish voqealar yaqqol misol bo'la oladi. Shu sababli tarixiy burilish davrlarida ob'ektiv tarzda yuzaga keladigan bunday holatlarni chuqur anglab, ularga to'g'ri munosabatda bo'lish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", NMIU, 2023. – 488 b.
2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: 1 jild Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 304 b.



3. Navoiy A. Hayratul-abror. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 352 b.
4. Avloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq. – Toshkent: O’qituvchi, 1992. – 160 b.
5. Mahmud al-Koshg’ariy. “Devon lug’otit turk” .
6. Amir Temur. Ko’ragon jangnomasi. – Toshkent: Cho’lpon, 1990. – 329 b.
7. Yusuf Xos Xojib. Qutadg’u bilig: (Saodatga yo’llovchi bilim) / Hozirgi o’zbek tilida bayon qiluvchi va so’z boshi muallifi B.To’xliiev. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – 192 b.